



O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Samarqand davlat universitetining
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti



TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA

ILMIY-USLUBIY JURNAL

ISSN 2181-2659

2025/N°3



SLIB.UZ
Scientific library of Uzbekistan





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING
DENOY TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA
Ilmiy-uslubiy jurnal

ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО И ПЕДАГОГИКА
Научно-методический журнал

ENTREPRENEURSHIP AND PEDAGOGY
Scientific and methodical journal

2025-yil 3-son

DENOY – 2025

PEDAGOGIKA

BOSHLANG‘ICH TA‘LIM AMALIYOTIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH METODINING INNOVATSION USULLARI

TASHPULATOVA DILOROM MUKIMOVNA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: diloromtoshpulatova70@gmail.com

UDK: 373.3;17.02

<https://orcid.org/0000-0003-0503-4771>

Kalit so‘zlar:

hamkorlik metodi,
mahorati, hamkorlik,
kasbiy rivojlanish,
metodik yondashuv,
tahlil, refleksiya.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishda haftalik malakaviy amaliyot davomida hamkorlik metodining samaradorligi o‘rganiladi. Tadqiqotda hamkorlik metodining pedagogik jarayondagi o‘rni, o‘qituvchilarning tayyorlik darajasiga ta’siri, shuningdek, amaliyot davomida kasbiy refleksiya va metodik yondashuvlarning rivojlanishi tahlil qilinadi. Hamkorlikka asoslangan metod o‘qituvchilarning dars o‘tish mahoratini, metodik yondashuvni va o‘qituvchilarga individual yondashish ko‘nikmalarini shakllantirishda ijobiy natijalar bergan. Tajriba sinfi ishtirokchilari pedagogik faoliyatni boshqarish va ta‘lim metodlarining integratsiyasi borasida sezilarli darajada yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 78% o‘qituvchining kasbiy mahorati va pedagogik kommunikatsiya madaniyati yuqori darajada bo‘lib, samarali o‘qitish usullari amaliyotda yaqqol namoyon bo‘lgan. Xulosa qilib aytganda, hamkorlik metodi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy o‘sishi va metodik tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Ключевые слова: **Аннотация:** В данной статье изучается эффективность
метод метода сотрудничества в ходе еженедельной

сотрудничества,
мастерство,
сотрудничество,
профессиональное
развитие,
методический
подход, анализ,
рефлексия.

квалификационной практики в повышении профессионального мастерства учителей начальных классов. В исследовании анализируется роль метода сотрудничества в педагогическом процессе, его влияние на уровень подготовки учителей, а также развитие профессиональной рефлексии и методических подходов в ходе практики. Подход, основанный на сотрудничестве, дал положительные результаты в формировании навыков преподавания, методического подхода и навыков индивидуального подхода к учащимся. Участники экспериментального класса достигли значительно более высоких показателей по управлению педагогической деятельностью и интеграции методов обучения. По результатам исследования, 78% учителей имеют высокий уровень профессионального мастерства и культуры педагогической коммуникации, эффективные методы обучения ярко проявляются на практике. Таким образом, метод сотрудничества играет важную роль в профессиональном росте и развитии методического мышления учителей начальных классов.

INNOVATIVE METHODS OF IMPROVING THE PEDAGOGICAL SKILLS OF FUTURE TEACHERS IN THE PRACTICE OF PRIMARY EDUCATION

Keywords:

collaboration
method, skill,
collaboration,
professional
development,
methodological
approach,
analysis,
reflection.

Abstract: This article examines the effectiveness of the collaborative method during weekly qualification practice in improving the professional skills of primary school teachers. The study analyzes the role of the collaborative method in the pedagogical process, its influence on the level of teacher preparedness, as well as the development of professional reflection and methodological approaches during practice. The collaborative approach has yielded positive results in the formation of teachers' teaching skills, methodological approaches, and skills of individual approach to students. The participants of the experimental class achieved significantly high indicators in the management of pedagogical activity and

the integration of teaching methods. According to the research results, 78% of teachers have a high level of professional skills and a culture of pedagogical communication, and effective teaching methods are clearly manifested in practice. In conclusion, the collaborative method plays an important role in the professional growth and development of methodological thinking of primary school teachers.

KIRISH

Hozirgi zamonaviy ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirish masalasi pedagogik tadqiqotlarda alohida o'rin egallaydi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida mamlakatda ta'lim sifatiga erishish vazifalari belgilangan [1, 2]. Shu jihatdan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lim jarayonida kasbiy tayyorgarlikning nazariya va amaliyot uyg'unligiga asoslangan tizimga amal qilmoqda. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi va 2022-yil 28-fevraldagi PF-134-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish Milliy dasturi"ga asosan haftaning 4 kuni auditoriya mashg'ulotlari, 2 kuni esa ta'lim muassasalarida amaliyot o'tkazish tizimi joriy etilgan. Mazkur yondashuv haftalik malakaviy amaliyot orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini bugungi kun talablari asosida shakllantirishda muhim o'rin tutadi [2, 5].

Pedagogik loyihalash ta'lim va tarbiyaga oid muammolarni tizimli o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli pedagog olimlar: "Loyiha asosida o'qitish – o'quvchining mustaqil ishlashi, fikr yuritishi va bilimni o'zlashtirib olishini kafolatlaydi", – deb ta'kidlaydilar. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirishda loyiha asosida ishlash ularning mustaqil fikrlashi va kerakli ma'lumotlarni mustaqil izlab topish malakasini rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang'ich ta'lim tizimida haftalik malakaviy amaliyot jarayonida o'qituvchilik kompetensiyalarini shakllantirish va monitoring qilishda hamkorlik metodining qo'llanilishi konstruktiv-pedagogik hamda interaktiv-didaktik yondashuvlar bilan uyg'unlashadi. Ushbu yondashuv metodologik jihatdan L.S.Vygotskiyning proksimal rivojlanish zonasi nazariyasi bilan asoslanadi. Bu nazariyada hamkorlik metodi orqali bilim va faoliyat transformatsiyasi yuzaga kelishi ta'kidlanadi [3, 36].

X.Xolboyeva boshlang'ich ta'limda metodik mahoratni rivojlantirishda real muhitdagi interaktiv amaliyotlarni tashkil etishning ahamiyatini alohida qayd etadi [4]. Shuningdek, hamkorlik metodini o'quv amaliyotlarida refleksiv tahlil mexanizmi sifatida ko'rib, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion-pedagogik madaniyat shakllanishiga hissa qo'shishini ko'rsatadilar [5, 35].

Adabiyotlar tahlilidan ko'rinishicha, ko'plab tadqiqotlar nazariy asos sifatida N.R.Abdullayevaning qarashlariga tayanadi [6, 86]. M.James va A.Pollard hamkorlikdagi kuzatuv hamda metarefleksiyaning ta'limiy jarayonda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, bu yondashuv malakaviy amaliyot davomida o'qituvchilik faoliyatini dinamik baholash imkonini berishini ta'kidlashadi [7, 74]. Shuningdek, B.A.Salimov pedagogik diagnostika va baholash nazariyasida bu jarayonlarni nazariy jihatdan asoslab beradi [8, 54].

Yuqorida keltirilgan ilmiy yondashuvlar asosida ushbu tadqiqotda faol kuzatuv, strukturalashtirilgan intervyu va kompetensiyalar matritsasiidan foydalaniladi. Bu esa o'rganilayotgan pedagogik faoliyatni didaktik tahlil qilish va u orqali o'qituvchilik mahoratini shakllantirishda integrativ yondashuvni ta'minlaydi.

Metodologik nuqtayi nazardan, fenomenologik tahlil, refleksiv monitoring va faoliyatga yo'naltirilgan pedagogik diagnostika kabi usullar tadqiqotda asosiy vosita sifatida tanlangan. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalardan A.Lieberman va L.Miller tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlik asosidagi modellar malakaviy amaliyotni rejalashtirishda moslashtirilib qo'llaniladi [9, 15].

NATIJALAR

Haftalik malakaviy amaliyot davrida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik faolligi va mahoratini o'rganish hamkorlik metodini qo'llash orqali amalga oshirildi. Tadqiqotda jami 210 nafar respondent ishtirok etdi, shundan 110 nafari tajriba sinfi, 100 nafari esa nazorat sinfi o'quvchilari edi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini hamkorlik metodi asosida tahlil qilish va ushbu yondashuvning ta'lim jarayonidagi samaradorligini aniqlashdan iborat edi.

O'quv jarayonida o'qituvchilar tomonidan qo'llanilgan metodologik yondashuvlar, jumladan interfaol metodlar, faol ta'lim texnologiyalari va individual yondashuvlar amaliyot davomida muvaffaqiyat bilan tatbiq etildi. O'qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishda hamkorlik metodi alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu metod o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan interaktiv va samarali muloqot o'rnatishga zamin yaratdi. Shuningdek, metodik jihatdan yetuk o'qituvchilar pedagogik vazifalarni o'quvchilarga yanada aniq va samarali tarzda tushuntira oldilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, hamkorlik metodi asosida o'qituvchilarning faoliyatini tahlil qilish va ularga o'z ish faoliyatini real sharoitda qayta ko'rib chiqish imkonini berish – ularning professionallik darajasini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. O'quvchilar bilan mustahkam pedagogik muloqot o'rnatilishi o'qituvchilarning yondashuvlariga yangicha qarash kiritishga yordam berdi.

Jadval asosida tuzilgan baholash natijalari shuni ko'rsatadiki, tajriba sinfi ishtirokchilari pedagogik faoliyatni boshqarish samaradorligi va ta'lim metodlarining integratsiyasi nuqtayi nazaridan yuqori natijalarga erishdilar. Xususan, 78% hollarda o'qituvchilar yuqori faoliyat ko'rsatkichlariga ega bo'lib, pedagogik kommunikatsiya madaniyati va ta'limning samarali usullari faol qo'llanilganligi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagogik faoliyatni hamkorlik metodida tahlil qilish o'qituvchilarda reflektiv fikrlash hamda o'z faoliyatini tanqidiy baholash va qayta ko'rib chiqish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa ularning professional o'sishini ta'minlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Baholash mezonlari sifatida pedagogik muloqot madaniyati, ishlab chiqilgan dars rejalarining mazmungan to'liq yoritilishi hamda o'quv materiallarini vizual ifodalash qobiliyati asos qilib olindi.

Tadqiqotdan olingan xulosalarga ko'ra, hamkorlikka asoslangan pedagogik faoliyat o'qituvchilarda ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. O'qituvchilar o'z maqsadlariga erishish yo'llarini qayta ko'rib chiqish, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarga yanada sifatli ta'lim berish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday pedagogik model esa o'qituvchilarning ilmiy-metodik ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi.

1-jadval

Boshlang'ich ta'lim amaliyotida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish metodining ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Qiymat	Izoh
Jami respondentlar	210 ta	Tadqiqotda qatnashgan jami respondentlar soni
Tajriba sinfida qatnashgan o'quvchilar	110 ta	Tajriba sinfi qatnashchilari soni
Nazorat sinfida qatnashgan o'quvchilar	100 ta	Nazorat sinfi qatnashchilari soni
Pedagogik ko'rsatkichlar	78% yuqori faollik darajasi	Pedagogik faoliyatni baholashda yuqori faollik darajasini ifodalovchi

		ko'rsatkich
Pedagogik kommunikatsiya madaniyati	Yuqori darajada	Pedagogik kommunikatsiyaning samaradorligi
Dars rejalari va vizuallashtirish qobiliyati	Yuqori darajada	O'qituvchining dars rejalari va vizuallashtirish qobiliyati

Tadqiqot natijalari pedagogik faoliyatni samarali tahlil qilishning ahamiyatini ko'rsatdi va hamkorlikda ishlashning o'qituvchilarning malakasini oshirishda muhim o'rin tutishini tasdiqladi.

MUHOKAMALAR

Haftalik malakaviy amaliyot jarayonida qo'llanilgan hamkorlik metodi o'qituvchilarda pedagogik intersub'ektivlikni shakllantirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida faoliyatni tashkil etish hamda reflektiv tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Tadqiqot davomida kuzatuv, intervyu va kollegial tahlil usullari orqali o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik refleksiyasi va didaktik interaktivlik darajalari baholandi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatdiki, kollegial hamkorlik o'qituvchilarning kasbiy identifikatsiyasini shakllantirish, tahliliy fikrlashni chuqurlashtirish va ta'lim jarayonini faollashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-fevraldagi 82-son qarorida belgilangan ta'limdagi pedagog kadrlar sifati bo'yicha normativ-me'yoriy talablar bilan mazkur amaliyot natijalari uyg'unlikda ekanligi kuzatildi. Garchi ayrim hududiy amaliyotlarda resurs ta'minoti va tashqi kuzatuv jarayonlarining yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani aniqlangan bo'lsa-da, umumiy natijalar amaliyot samaradorligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Haftalik malakaviy amaliyot jarayonida hamkorlik metodidan foydalanish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy refleksivligini, adaptiv-didaktik yondashuvini va kollegial o'zaro ta'sir samaradorligini oshirishda samarali metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bu metod o'qituvchilik kompetensiyalarining integral rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatiga tizimli tayyorgarlikni mustahkamlaydi.



ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-fevraldagi PF-134-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish Milliy dasturi". – Toshkent, 2022.
3. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Педагогика, 1982.
4. Холбоева Х. Бошланғич синф ўқитувчиларини тайёрлашда методик компетенцияни шакллантириш. – Тошкент: Фан, 2022.
5. Панина Т.С., Вавилова Т.А. Коллаборативное обучение как ресурс развития профессиональной рефлексии педагога. – Казань, 2021.
6. Абдуллаева Н.Р. Педагогик амалиётнинг таҳлилий мониторинги. – Самарқанд, 2020.
7. James M., Pollard A. Learning through Teaching: Collaborative Approaches in Initial Teacher Education. – London: Routledge, 2019.
8. Салимов Б.А. Педагогик диагностика ва баҳолаш назарияси. – Тошкент: Муаллим, 2021.
9. Lieberman A., Miller L. Teachers – The Agents of Change in Professional Learning Communities. – Harvard Educational Review, 2018.

13. **Kosimov A. D.** Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishda integrativ va simulyativ texnologiyalar uyg'unligi..... 118-124
14. **Niyozova M. N.** Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini takomillashtirish.....125-131
15. **Sultanov O. S.** Oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining kasbiy ko'rsatgichlarini takomillashtirish.....132-139
16. **Amirova H. O.** Tayyorlov guruhlarida atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirish asoslari..... 140-147
17. **Jabborova O. M.** Boshlang'ich ta'lim metodikasini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari..... 148-155
18. **Tilavova S. B.** STEAM yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishda TPACK modelining roli.....156-163
19. **Tashpulatova D. M.** Boshlang'ich ta'lim amaliyotida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish metodining innovatsion usullari.....164-170
20. **Kuchkinov A. Y, Do'stmurodova D. R.** "Bilga xoqon" romanida birlik tushunchasining talqini.....171-178
21. **Mustarova D. E.** Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda STEAM yondashuvining samaradorligi..... 179-188
22. **Dustov S. R.** IV sinf o'quvchilarining ekologik tafakkurini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi.....189-196
23. **Ismoilov B. I, Qosimova G. E.** Zamonaviy axborot texnologiyalari orqali yoshlar ongida vatanparvarlik g'oyalarini mustahkamlash..... 197-204
24. **Yuldoshev T. A.** Improving psychological foundations of establishing responsible relationships within families in youth.....205-216
25. **Allayeva H. R.** Boshlang'ich sinflarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi..... 217-226
26. **Merganov Sh. M, Noraliyev S. N, Doniyorova G. T.** Klasterli yondashuv va uning ilmiy ahamiyati.....227-233
27. **Saidova P. M.** Oliy ta'lim o'qituvchilarida kasbiy-pedagogik deformatsiyaning profilaktik tizimini takomillashtirishning mavjud



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining
“**Tadbirkorlik va pedagogika**” ilmiy-uslubiy jurnali
2020-yil 18-sentabrda 1114-raqamli guvohnoma bilan
ro‘yxatga olingan. Har chorakda bir marotaba chop etiladi.

Jurnalda nashr etilgan maqolalar <https://inlibrary.uz/>, <https://slib.uz/uz/>,
<https://scholar.google.com>, <https://www.openaire.eu/>, <https://www.researchbib.com/>
platformalarida indekslanadi.

Terishga berildi: 15.06.2025-yil.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2025-yil.

Qog‘oz bichimi 60*84 1/8. Adadi – 50 ta.

Nashr tabog‘i – 13,5. Buyurtma № 1-T.

Manzilimiz: 190507, Surxondaryo viloyati
Denov shahri Sharof Rashidov ko‘chasi 360-uy.

info_dtpi@yedu.uz, dtpi@yexat.uz

+998-95-650-77-57

Maqola nashr ettirish maqsadida bog‘lanish uchun:
+998 90 976-76-98. URL: <https://t.me/MrScott98>

Maqolalarda keltirilgan fikr va raqamlar uchun mualliflar javobgardir.



TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA

ILMIY-USLUBIY JURNAL

ISSN 2181-2659